

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni 2018 yil 1 iyul holatiga 32900,1 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 243,4 ming kishiga yoki 0,7 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 16646,1 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,6 %), qishloq aholisi soni 16254,0 ming kishini (49,4 %) tashkil etdi.

### E'tibor bering: 2018 yil yanvar-iyun


- Aholi soni **243,4 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **324,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- **75,6 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **104,9 mingta nikoh** va **16,4 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## O'zbekiston Respublikasi aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-iyun oylarida)




## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 iyul holatiga, ming kishi)

dastlabki ma'lumot



Respublika hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand viloyatida 3753,3 ming kishini (respublika aholisi sonidagi ulushi 11,4 %ni) va Farg'ona viloyatida 3644,9 ming kishini (11,1 %), aksincha eng kam aholi soni Navoiy viloyatida 964,7 ming kishi (2,9 %) va Sirdaryo viloyatida 821,9 ming kishini (2,5 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Surxondaryo viloyatida 2,1 %ni, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida 2,0 %ni, Jizzax viloyatida 1,9%ni, Namangan viloyatida 1,8%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qoraqalpog'iston Respublikasida 1,4%ni va Toshkent viloyatida 1,2 %ni tashkil etdi.




**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 324,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,0 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega oshgan (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 19,5 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Samarqand (21,0 promilledan 22,9 promillega) va Qashqadaryo (21,4 promilledan 22,4 promillega) viloyatlarida sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Navoiy (19,8 promilledan 19,1 promillega) va Xorazm (16,7 promilledan 16,2 promillega) viloyatlarida kuzatildi.

Jami tug'ilganlarning 31,6 %i onaning 1-farzandi, 36,6 %i onaning 2-farzandi va 31,8 %i onaning 3-va undan yuqori farzandlariga to'g'ri kelmoqda.

### Onaning tug'ish tartibi bo'yicha tug'ilganlar soninig taqsimlanishi (jami tug'ilganlarga nisbatan, %da)



### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



**Qiz bolalar:**  
154,3  
ming nafar



**O'g'il bolalar:**  
170,0  
ming nafar

2018 yilning yanvar-iyun oylarida jami 324,3 ming nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, shundan onasining yoshi bo'yicha tug'ilganlarning 120,6 ming nafari (jami tug'ilganlarga nisbatan 37,2 %) 20-24 yoshlardagi ayollar, 115,8 ming nafari (35,7 %) 25-29 yoshlardagi ayollar, 58,5 ming nafari (18,0 %) 30-34 yoshlardagi ayollar hissasiga to'g'ri kelgan.

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 75,6 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 4,9 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan birgina Toshkent viloyatida (5,7 promilledan 5,8 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Navoiy (4,7 promilledan 4,2 promillega) Farg'ona (5,0 promilledan 4,5 promillega), Xorazm (4,6 promilledan 4,1 promillega) Namangan (4,8 promilledan 4,4 promillega) va Andijon (5,5 promilledan 5,1 promillega) viloyatlarida kuzatildi.

Jami vafot etganlarning 7,3 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichik yoshdagilarga (2017 yilda 7,8 %), 26,7 %i mehnatga layoqatli yoshdagilarga (2017 yilda 26,7 %) va 66,0 %i mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagilar (2017 yilda 65,5 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida vafot etganlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan 3,1 ming kishiga kamaydi.

### Vafot etganlar



**Erkaklar:**  
41,0 ming  
kishi

**Ayollar:**  
34,6 ming  
kishi

### Asosiy yosh guruhlari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)

7,8 %

mehnatga layoqatli yoshdan kichik



7,3 %

26,7 %

mehnatga layoqatli yoshdagilarga



26,7 %

65,5 %

mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagilar




66,0 %



2018 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 61,3 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,3 %i o'simtalardan, 5,6 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,5 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,5 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,5 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 3,5 ming nafarni tashkil etib, ularning 59,6 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 16,8 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 12,9 %i tug'ma anomaliyalardan, 2,2 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,0 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,8 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 5,7 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)




### 2018 yil yanvar-iyun

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 248,7 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 15,6 ming kishiga (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 233,1 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
248,7 ming kishi

### Hududlar kesimida nikoh tuzish koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



**Nikoh.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 104,9 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,5 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (122,4 %), Jizzax (121,7 %), Andijon (118,0 %), Farg'ona (114,9 %) va Toshkent (114,8%) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

### Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)

#### Nikohdan ajralishlar.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 16,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Surxondaryo (126,7%), Andijon (120,8 %), Sirdaryo (112,7 %), viloyatlariga va Toshkent shahriga (114,5 %) to'g'ri kelmoqda.

2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli kamayish Xorazm (30,9 %) va Navoiy (10,1 %) viloyatlarida kuzatildi.





### Poytaxtdagi demografik holat.

O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrining doimiy aholisi soni 2018 yil 1 iyul holatiga 2485,9 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 21,0 ming kishiga yoki 0,9 %ga o'sgan.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida 21,0 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 17,1 promilleni tashkil etdi va 2017 yilga nisbatan 0,6 ga (2017 yilning mos davrida - 16,5 promille bo'lgan) o'sdi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida 8,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 300 nafari 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soniga to'g'ri kelmoqda. O'lim koeffitsienti 6,5 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,3 ga kamaydi (2017 yilning mos davrida - 6,8 promille bo'lgan).

Poytaxt aholisining tabiiy o'sishi 13,0 ming kishini tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,3 ming kishiga o'sishi (2017 yilning mos davrida 11,7 ming kishi bo'lgan) kuzatildi.

FHDYO organlarida 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 7,7 mingta nikoh va 2,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi.

1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,2 promilleni tashkil qilib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,5 ga o'sdi (2017 yilning mos davrida - 5,7 promille bo'lgan).



Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,7 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega (2017 yilning mos davrida 1,5 promille bo'lgan) o'sgan.


**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-iyun oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 83,3 ming kishini (82,0 ming kishi respublika hududlaridan, 1,3 ming kishi xorijiy mamlakatlardan), ko'chib ketganlar soni esa 88,6 ming kishini (82,0 ming kishi respublika hududlariga, 6,6 ming kishi xorijiy mamlakatlarga) tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 5,3 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 9,6 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

|                           | 2017 yil<br>yanvar-iyun | 2018 yil<br>yanvar-iyun |
|---------------------------|-------------------------|-------------------------|
| <b>Ko'chib kelganlar</b>  | 82,5                    | 83,3                    |
| <b>Ko'chib ketganlar</b>  | 92,1                    | 88,6                    |
| <b>Migratsiya saldosi</b> | -9,6                    | -5,3                    |

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Toshkent viloyatida (minus 2,6 ming kishi), Qashqadaryo viloyatida (minus 2,1 ming kishi), Qoraqalpog'iston Respublikasida (minus 1,7 ming kishi) qayd etildi.


### O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlarning taqsimlanishi (2018 yil yanvar-iyun oylarida, jami xorijdan ko'chib kelganlarga nisbatan, %da)



Doimiy yashash uchun  
O'zbekiston Respublikasiga  
xorijiy mamlakatlardan ko'chib  
kelganlar soni **1292 kishi**



### O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlarning taqsimlanishi (2018 yil yanvar-iyun oylarida, jami xorijga ko'chib ketganlarga nisbatan, %da)



Doimiy yashash uchun  
O'zbekiston Respublikasidan  
xorijiy mamlakatlarga ko'chib  
ketganlar soni **6568 kishi**

